

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MATRASULOV G‘AYRAT JAMALADDINOVICH

**SHIMOLI-G‘ARBIY QIZILQUMDA KATTA QUMSICHQONI
POPULYATSIYASINING REPRODUKTIV JARAYONIGA
OROL INQIROZI TA’SIRINI O‘RGANISH**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Matrasulov G‘ayrat Jamaladdinovich

Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqoni populyatsiyasining
reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi ta‘sirini o‘rganish..... 3

Матрасулов Гайрат Жамаладдинович

Изучение влияния Аральского кризиса на репродуктивный процесс
популяции большой песчанки в Северо-западном Кызылкуме..... 21

Matrasulov Gayrat Jamaladdinovich

Study of the impact of the Aral Sea crisis on the reproductive process of the
population of great gerbils in the North-Western Kyzyl Kum..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 45

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.B.20.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

MATRASULOV G‘AYRAT JAMALADDINOVICH

**SHIMOLI-G‘ARBIY QIZILQUMDA KATTA QUMSICHQONI
POPULYATSIYASINING REPRODUKTIV JARAYONIGA
OROL INQIROZI TA’SIRINI O‘RGANISH**

03.00.06 – Zoologiya

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Nukus - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B735 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jumanov Muratbay Arepbaevich
Biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Xolboev Faxriddin Raxmonkulovich
Biologiya fanlari doktori, professor

Gandjaeva Lola Atanazarovna
biologiya fanlari doktori, katta ilmiy xodim


Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.B.20.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «29» aprel kuni soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abidov ko'chasi, 1 uy. Universitet majlislar zali. Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).


Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№129-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abidov ko'chasi, 1 uy, Tel: (+99861) 223-60-78, faks (+99861) 223-60-78.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «14» aprel kuni tarqatildi.
(2023 yil «14» apreldagi №2-raqamli reestr bayonnomasi)




G.Asenov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash rais o'rinbosari, b.f.d.,
professor


M.K.Begjanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, b.f.d., dotsent


Ya.I.Ametov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda iqlimning global o'zgarishi, tabiiy bo'lmagan landshaftlarning keskin ortib borishi, tabiiy muhitning sanoat chiqindilari bilan ifloslanishi muntazam ravishda oshib borishi biogeotsenozning tirik komponentlaridan hisoblangan hayvonot dunyosi ob'ektlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda va ular vakillarining turli xil ekologik yashash makonlariga moslashishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, antropogen o'zlashtirilgan va urbanlashgan hududlarda umurtqali hayvonlar vakillarining, jumladan, kemiruvchilar populyatsiyasi zichligini qisqarishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, tabiiy ekotizim va antropogen bosim yuqori bo'lgan hududlarda kemiruvchi sutemizuvchilarning ekologiyasini asoslash, ko'payuvchanligini aniqlash, populyatsiyalari holatini va ularning epizootologik-epidemiologik ahamiyatini baholash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda teriofauna vakillaridan insonlar bilan yaqin joyda yashovchi kemiruvchilarning geografik tarqalishi, bio-ekologiyasi, nasldorligi, ularning trofik aloqalari va yuqumli kasalliklarni tarqatishdagi rolini aniqlash hamda ularga qarshi zamonaviy kurash choralarini ishlab chiqishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, hayotiy shakli tuproq bilan bog'liq bo'lgan kemiruvchilar vakillarining, jumladan katta qumsichqon populyatsiyalarini son va miqdor jihatidan o'zgarishlari aniqlandi, ularning ko'payuvchanligi o'rganildi hamda epizootologik-epidemiologik ahamiyati va ekologik inqirozga uchragan ekotizimlar holatini baholashdagi roli isbotlandi. Ta'kidlash lozimki, qurg'oqchil hududlarda yashovchi kemiruvchilarning son jihatidan dominant turi hisoblangan katta qumsichqonning populyatsiyasi nafaqat ekologik omillar ta'sirida, balki ularning ko'payish jadalligida ham, yirtqichlar uchun muhim oziq-ovqat manbai darajasida ham o'zgarib turadi. Ayniqsa, arid hududlari tuproqlarining keng ko'lamda sun'iy o'zlashtirilishi katta qumsichqon nasldorligini o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shunga ko'ra, katta qumsichqonning landshaftlararo kolonial joylashishi va ko'payish o'zgachaligini aniqlash, ekologiyasini asoslash hamda epizootologik-epidemiologik ahamiyati bo'yicha amaliyotga joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda respublikamizda lokal hududlar faunasini inventarizatsiyalash, hayvonot dunyosi bioxilma-xilligini saqlash va bioresurslaridan oqilona foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu borada, mammalialardan katta qumsichqonning hududiy tarqalishi aniqlandi, ko'payishiga ta'sir etuvchi omillar baholandi va ularga qarshi profilaktik chora-tadbirlar olib borish uchun takliflar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ “... 79-maqсад: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish.” vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, Respublikamizning Shimoli-G'arbiy Qizilqumida tarqalgan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni.

katta qumsichqon populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga hozirgi Orol ekologik inqirozi ta'sirini o'rganish, ularni transmissiv kasalliklarni tarqatishdagi rolini baholash va qarshi kurash usullarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 19 sentyabrdagi 408-son "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida" gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 7 noyabrdagi 914-son "Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to'g'risida" gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 avgustdagi PQ-4805-son "Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kemiruvchilar (Rodentia) turkumi va uning vakillari, xususan katta qumsichqon (*Rhombomys opimus*)ning biologiyasi, ekologiyasi, ko'payish mavsumlari, son dinamikasi, serpushtiligi, ektoparazitlari, o'lat o'chog'ini tarqatishdagi epizootologik-epidemiologik ahamiyati haqida ko'plab xorijlik olimlar Hilda M. Bruce (1959), G.G. Musser va M.D. Carleton (2005), Jan A. Randall va boshq. (2004, 2008), Patricia G. Parker, John A. Eimes (2005), Y. Wang va boshq. (2011), Margaret Batchelder¹, Lynn S. Keller, Mary Ball Sauer, Wanda L. West (2012), A. Sofizadeh (2018) va boshqalar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.Z. Akiev (1969), L.P. Rapoport va boshq. (1990), O.A. Jigalskiy (2002), M.V. Supotnitskiy, N.S. Supotnitskaya (2006, 2021), S.T. Nurtazin va boshq. (2019), V.M. Dubyanskiy (2013, 2015), B.M. Gubin, S.L. Sklyarenko (2014), V.A. Lobkov (2016), V.V. Sutyagin (2018) tomonidan katta qumsichqonning ko'payishiga oid tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda, jumladan, Qoraqalpog'istonning Shimoli-G'arbiy Qizilqumida keng tarqalgan katta qumsichqonning biotopik tarqalishi, soni, ko'payish xususiyatlari va turli areallardagi oziqlanish holatlari, epizootologik va epidemiologik ahamiyati hamda ularga turli ekologik omillarning ta'sirini o'rganish bo'yicha ma'lumotlar R. Reymov (1995, 2001), G. Asenov (1968, 1999, 2019, 2021), T. Nuratdinov (1994), K. Kayipbekov (1977, 2009), O. Mitropolskiy (1985, 1995, 2017), S. Mambetullaeva (1999, 2012, 2013, 2019), S. Seytnazarov (2002), M. Jumanov (2014, 2017), U. Shaniyazov (2019) kabi olimlarning tadqiqotlarida qayd etilgan.

Biroq, ushbu tadqiqot ishlari Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum tumanlarida katta qumsichqon koʻpayishi va reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi taʼsirini bugungi kundagi holatini toʻliq aks ettira olmaydi. Shunga koʻra, Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum choʻl ekotizimlaridagi katta qumsichqonning populyatsiyalar tarkibi, koʻpayishi va son dinamikasining oʻzgarishlari hamda reproduktiv jarayoniga Orol inqirozining hozirgi kundagi taʼsirini oʻrganish ilmiy-amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universiteti “Umumiy biologiya va fiziologiya” kafedrasining “Janubiy Orolboʻyi hududining flora va faunasini kompleks oʻrganish va muhofaza qilish” ilmiy-tadqiqot mavzusi (2018-2022) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum oʻlat oʻchogʻida dominant tur hisoblangan katta qumsichqon populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga Orol ekologik inqirozi taʼsirini baholashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oʻrganilayotgan hududda tarqalgan katta qumsichqonning populyatsiyalar tarkibining zamonaviy holatini baholash;

katta qumsichqonning landshaftli ekologik tumanlar boʻyicha koʻpayish oʻzgachaliklarini tahlil qilish;

katta qumsichqon koʻpayishidagi mavsumiy, yillik va koʻp yillik populyatsiyalar miqdori hamda son dinamikasini aniqlash;

oʻlat oʻchogʻidagi katta qumsichqon populyatsiyalarining etologik xususiyatlarini ochib berish;

Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumda katta qumsichqon populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga Orol inqirozining taʼsirini tahlil qilish.

Tadqiqotning obʼekti Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum hududida tarqalgan katta qumsichqon hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti katta qumsichqonning koʻpayish biologiyasi, ekologiyasi, populyatsiyasi va tarqalish xususiyatlari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada zoologik, ekologik, biometrik, statistik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor katta qumsichqonning bio-ekologik xususiyatlari Orol inqirozining taʼsiri doirasida aniqlangan;

Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum hududida tarqalgan katta qumsichqon populyatsiyalarining nasldorligiga hozirgi Orol inqirozi taʼsiri sharoitidagi holati qiyosiy tahlil qilingan;

katta qumsichqonning tabiiy ekotizimlardagi ahamiyati, tarqalishi, embrional son koʻrsatkichlarining mavsumiy dinamikasi hamda koloniyalarning strukturasi asoslab berilgan;

oʻlat oʻchogʻidagi populyatsiyalar son oʻzgarishida katta qumsichqonning etologik xususiyatlari ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Orolbo‘yi mintaqasida katta qumsichqonning barqaror rivojlanishdagi nasldorlik o‘zgarishlari aniqlangan va ekologik vaziyatni baholashda monitoring ishlarini kengaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

katta qumsichqonining reproduktiv jarayonidagi o‘zgarishlari, xususan embrionlar son miqdori uchun Orol inqirozining ta’siri tadqiqot uchun tanlangan 4 ta davr bo‘yicha tahlil qilingan va populyatsiyalar sonining hozirgi holatini o‘rganish chora-tadbirlari ishlab chiqilgan.

Orol inqirozi sharoitida Qizilqum o‘lat o‘chog‘ining rezerventi bo‘lgan - katta qumsichqonning nasldorligidagi o‘zgarishlarni, mavsumiy, yillik va ko‘p yillik son dinamikasini aniqlash, epizootologik-epidemiologik holatini bashorat qilish hamda yuqumli kasalliklar kelib chiqishining oldini olishdagi ahamiyati hisoblanadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada zoologik, ekologik, an’anaviy teriologik hamda morfometrik usullarning qo‘llanilganligi, turning tarqalishi bo‘yicha ma’lumotlar Innovatsion ArcGIS (geografik axborot tizimlari, www.esri.com) kuchli xaritalash va tahlil qilish dasturi hamda Google Earth Pro dasturi orqali o‘rganilganligi hamda ilmiy yondashishlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma’lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qizilqumning Shimoli-G‘arbiy qismida katta qumsichqon populyatsiyasining nasldorligini Orol ekologik inqirozi ta’sirida o‘rganilganligi, ularning o‘rganilgan ekologik tumanlar kesimida tarqalish o‘zgachaliklari ko‘rsatib berilganligi va biogeotsenozdagi ahamiyati ochib berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Respublikamizning cho‘l hududlarida tarqalgan katta qumsichqonning bio-ekologik xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilish, populyatsiyalar tarqalishining zamonaviy holatini baholash, Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqon populyatsiyasining yuqori son davrida epizootologik va epidemiologik nazorat ishlarini olib borishni ta’minlashda hamda zoologiya, ekologiya yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borishda foydalanishni amalga oshirishda xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqonning joylashish o‘zgaruvchanligi, ko‘payishidagi farqlari, ko‘payish jarayonining bioekologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda tarqalgan katta qumsichqonning ko‘payish xususiyatlari va mazkur hududga yondosh bo‘lgan Amudaryo deltasining muhofaza etiladigan tabiiy hududlarida ham ularning tarqalganligi, ko‘payuvchanligi o‘rganilib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasi amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo‘mitasining 2022 yil 23 noyabr 01/18-3433 son ma’lumotnomasi). Natijada, Orolbo‘yi mintaqasida

katta qumsichqonning barqaror rivojlanishdagi nasldorlik o'zgarishlari o'rganilib, ekologik vaziyatni baholash bo'yicha monitoring ishlarini kengaytirish imkonini bergan;

Shimoli-G'arbiy Qizilqum hududida va unga yondosh hududlarda tarqalgan katta qumsichqon ko'payishidagi nasldorligi hozirgi Orol inqirozi ta'siri sharoitida 4 ta davr (1965-1967; 1989-1991; 2008-2009; 2018-2022)ga bo'lib o'rganilib va uning o'lat kasalligi epizootologiyasidagi ahamiyati qiyosiy tahlil qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligi amaliyotiga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2022 yil 14 noyabr №01/9746 son ma'lumotnomasi). Natijada katta qumsichqon populyatsiyasi reproduktiv jarayonidagi o'zgarishlarini Orol inqirozi ta'sirining hozirgi holati asosida monitoring qilish hamda ushbu turning o'lat kasalligini saqlashdagi va tarqatishdagi ahamiyatini o'rganish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 15 ta ilmiy ish nashr etilgan. Shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Tadqiqot natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kemiruvchilar faunasi, qumsichqonlarning o'rganilish holati”** deb nomlangan birinchi bobida Qizilqumning Qoraqalpog'iston qismi cho'lining kemiruvchilar faunasi tadqiq qilinishi tarixi xaqida qisqacha bayon etilgan bo'lib, unda Shimoli-G'arbiy Qizilqum kemiruvchilar tur tarkibi, bioekologiyasi va epizootologik-epidemiologik ahamiyati bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar o'z ifodasini topgan. Shuningdek, Qoraqalpog'iston sharoitida katta qumsichqonni alohida tur sifatida o'rganilish holati bo'yicha bugungi kungacha olib borilgan tadqiqotlarning natijalari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan hududning tabiiy-geografik tavsifi, tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida

tadqiqot o'tkazilgan hududning tabiiy-iqlim sharoitlari, tadqiqot olib borilgan landshaftli - ekologik tumanlar, tadqiqot materiallari va qo'llanilgan usullar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqot ishlari 2018-2022 yillar davomida Shimoli-G'arbiy Qizilqumning landshaftli-ekologik tumanlarida olib borilgan.

Katta qumsichqon yashovchanligiga Orol inqirozi ta'sirini solishtirmali turda o'rganish uchun 4 ta davr bo'yicha: 1965-1967 yillar (Orol dengizining to'lib turgan davr); 1989-1991 yillar (suv sathining pasayishidan 25-30 yil keyingi davri); 2008-2009 yillar (Orol dengizi qurishi kuchaygan davri) hamda 2018-2022 yillar (qo'shimcha davr)da turning ko'payish nasldorligi tahlil qilindi.

Har bir tadqiqot o'tkazganda katta qumsichqonning miqdori, monitoring kuzatishlarda absalyut va nisbiy son hisobi o'rganilib borildi. Tadqiqotlar bahor, yoz va kuz fasllarida, kuzatish o'tkazish rejimiga bog'liq dala sharoitida qopqon-liniya usulida amalga oshirildi, dala tadqiqot ishlarida N.A.Bobinskiy va boshq. (1965) "Определитель млекопитающих СССР" hamda G.A.Novikovning (1953) "Полевые исследования по экологии наземных позвоночных" manbasida keltirilgan usullardan foydalanildi. Qizilqumning Shimoli-G'arbiy qismidagi 7 ta landshaftli-ekologik tumanlarining uchtasida; Orololdi qumi, Nukus qumi va G'arbiy Qizilqumda (1-rasm) katta qumsichqon tarqalishining zoogeografik kartografiyalari N.V. Tupikova va L.V. Komarovalarning (1979) "Принципы и методы зоологического картографирования" manbalaridan va boshqa olimlarning tadqiqot materiallaridan foydalanildi.



1-rasm. Tadqiqot olib borilgan hududlar (Google Earth Pro)

Katta qumsichqonning tana massasini o'lchash texnikasi va olingan natijalarni tahlil qilish tartib qoidalari umum qabul qilingan uslublarga mos ravishda amalga oshirilgan. Laboratoriya sharoitida olib boriladigan tadqiqotlar K.Ye.Koptyaevaning (2018) hayvonotlarni yorish usullari bo'yicha olib borilgan.

Dissertatsiya ishining “**Shimoli-G‘arbiy Qizilqum sharoitida katta qumsichqonning ko‘payishi va mavsumiy dinamikasi**” deb nomlangan uchinchi bobida Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqonning joylashish xususiyatlari, hududlar bo‘yicha ko‘payishidagi farqlari, ko‘payish jarayonining bioekologik xususiyatlari, mavsumiy son dinamika o‘zgarishlariga oid natijalari taqdim etilgan.

Tadqiqotlar olib borilgan landshaftli - ekologik tumanlarda katta qumsichqon tarqalishi va yashovchanligi Orol ekologik inqirozi davrida o‘zining umidsizlik holatida bo‘lsa ham hayotchanligini saqlashi katta ahamiyatga ega.

Katta qumsichqoni ko‘payishi va keng tarqalishi uchun ob-havo sharoitlari, harorat rejimi, davomiyligi, o‘zgarishi, yog‘ingarchilik miqdori, mavjud son miqdori holati, o‘limchilik hamda ko‘payish davrida ozuqa o‘simliklarining etarli bo‘lishi muhim hisoblanadi. Tadqiqot hududlaridan eng past darajadagi hudud bo‘lib Orololdi qumi hisoblanadi (1-jadval).

Keyingi yillarda katta qumsichqonining ko‘payish miqdori kamayib bormoqda. Ilgari davrlarda 10 dan ortiq embrion uchrashish holatlari tez-tez uchragan bo‘lsa, hozirgi vaqtda deyarli umuman uchramaydi. 2020-2021 yillarda o‘rganilgan hududda jami 168 ta katta qumsichqoni yorib ko‘rilgan bo‘lib, shundan jami 9 organizm bo‘g‘oz ekanligi hamda bularda 36 ta embrion soni aniqlandi. Tadqiq qilingan ma’lumotlarga asoslangan holda Orololdi qumida depressiya holati davom etayotganligi kuzatilib, bu tur ko‘payishi avvalgi yillarga solishtirib o‘rganilganda pasayish darajasi, bo‘g‘oz urg‘ochilar hamda embrionlar soni kamayayotganligi aniqlandi.

1-jadval

Orololdi qumida katta qumsichqonining ko‘payish ko‘rsatkichi (2020-2021 yy.)

Oy	Dekada	Yorib ko‘rilgan qumsichqon soni	Embrion qatori (soni)										Jami embrionlar soni
			2	3	4	5	6	7	8	9	10	10 dan ko‘p	
2020 yil													
IX	II	37 (14 urg‘ochi)	-	1	-	-	-	-	-	-	-	-	3
2021 yil													
IX	III	34 (13 urg‘ochi)	-	1	1	2	-	-	-	-	-	-	17
X	I	97 (38 urg‘ochi)	-	-	4	-	-	-	-	-	-	-	16
Jami		168 (65 urg‘ochi)	-	2	5	2	-	-	-	-	-	-	36

Katta qumsichqon (*Rhombomys opimus* Licht.), Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda kemiruvchilarning ichida eng keng tarqalgan va ko‘p sonli bo‘lganligi uchun ushbu


region biotsenozida va o'lat kasalligi tabiiy o'chog'ida katta ahamiyatli tur hisoblanadi.

Katta qumsichqonning koloniyasi Qizilqumda 0,1-0,2 ga maydonda joylashganligi haqida koloniyalari (ini) chuqurligi ayrim joylarda 3 m. chuqurlikda, uch etajdan iborat bo'lib, er osti bo'limidagi barcha inlar o'zaro tutashgan (bog'langan) murakkab er osti metropolitenni ko'z oldiga keltiradi va mana shu chuqurlik qatlami bo'limi tuproqlarini vintelyasiyalab tuproq melioratsiyasida ham vazifa bajaradi

Katta qumsichqonning mavsumiy son dinamikasi biroz darajada doimiy, uning ko'p yillik dinamikasi tahlil qilinganida hamma joylashishlari va populyatsiyalarida bahorda barcha qishlab chiqqan urg'ochilari kam deganda bir marta tug'adi. O'rtacha iqlim sharoiti holatida 2 martadan tug'adi, ayrim namligi yuqori qulayli yillari qishlab chiqqan urg'ochilari (mart-iyun) ko'payish mavsumida uch marta tug'adi. Mana shunday ko'payishi orqali bu tur yil davomida o'zining son miqdorini ma'lum darajada ta'minlab turadi.

Katta qumsichqonning Qizilqum populyatsiyasi ulkan ko'payish biopotensialiga ega. Turning mavsumiy son amplitudasi (eng katta son o'zgarishlar oralig'i)da yuqori va depressiya yillarida katta tafovut borligi aniqlandi.

2018-2022 yillarda katta qumsichqonlar soni 1 ga hisobiga o'rganilganida quyidagi mavsumiy son dinamika o'zgarishlari aniqlandi (2-rasm).




2-rasm. Tadqiqot olib borilgan yillarda katta qumsichqonning mavsumiy son dinamikasi o'zgarishlari (yy-yillar, B-bahor, K-kuz).

Tadqiqotlar davomida 2018 yil bahor mavsumida katta qumsichqonlar soni 1 ga o'rtacha 3,5, kuz mavsumida 2,5 ekanligi; 2019 yil bahor mavsumida 2,1, kuz mavsumida 1,7 ekanligi; 2020 yil bahor mavsumida 1,3, kuz mavsumida 1,0 ekanligi; 2021 yil bahor mavsumida 0,5, kuz mavsumida 0,7 ekanligi; 2022 yil bahor mavsumida 0,6, kuz mavsumida 0,9 ekanligi aniqlandi. Tadqiqot olib

borilgan yillar bo'yicha 2018 yildan to 2021 yil bahorgi mavsumgacha katta qumsichqonlar soni kamayib kelganligini hamda keyingi ikki yilda juda past darajaga tushganligini ko'rishimiz mumkin.

Shimoli-G'arbiy Qizilqumda katta qumsichqonning 2005-2015 yillar kuz mavsumida ko'payishining o'rtacha son miqdori tahlil qilganimizda quyidagilar aniqlandi (3-rasm). 2008-2010 yillarda yog'ingarchilikning normada bo'lishi, shunga mos efemer va boshqa o'simliklarning yaxshi o'sib rivojlanishi hamda qish mavsumining iliq kelishi hisobiga 3 ta landshaftli - ekologik tumanda ham katta qumsichqonning ko'payish ko'rsatkichi yuqorilab (gektariga 4-7 bosh), depressiya holatidan chiqqanligi kuzatilgan.



3-rasm. Shimoli-G'arbiy Qizilqumning Orololdi qumi, Nukus qumi va G'arbiy Qizilqum hududlarila katta qumsichqon sonining kuz faslidagi miqdori (2005-2015 yy.)

Keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra biz shuni aniq ayta olishimiz mumkin, 2005-2015 yillar (kuz mavsumi)da katta qumsichqon son miqdori bo'yicha Qizilqumning Nukus qumida o'rtacha 2,6 va G'arbiy Qizilqumda o'rtacha 2,5 ga teng ekanligi, eng past ko'rsatkich esa Orololdi qumida o'rtacha 1,6 ga teng ekanligi aniqlandi.

Ilmiy tadqiqotlar olib borilgan yillar davomida quyidagilar aniqlandi:

2018 yilda jami tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni 293 bosh bo'lib, shundan 101 bosh yosh va 192 bosh qumsichqonlar voyaga etgan ekanligi aniqlandi. Voyaga etgan 192 boshdan 103 tasi urg'ochi bo'lib, bu jami qumsichqonning 35,1% ni tashkil qildi. Ushbu urg'ochi qumsichqonlarning bo'g'ozlari 41 ta (39,8%), tug'ganlari 36 ta (35%) va 26 ta (25,2%)si qisir ekanligi;

2019 yilda jami tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni 274 bosh bo‘lib, shundan 105 bosh yosh va 169 bosh qumsichqonlar voyaga etgan ekanligi aniqlandi. Voyaga etgan 69 boshdan 87 tasi urg‘ochi bo‘lib, bu jami qumsichqonning 31,7% ni tashkil qildi. Ushbu urg‘ochi qumsichqonlarning bo‘g‘ozlari 34 ta (39%), tug‘ganlari 33 ta (38%) va 20 ta (23%)si qisir ekanligi;


2020 yilda jami tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni 155 bosh bo‘lib, shundan 49 bosh yosh va 106 bosh qumsichqonlar voyaga etgan ekanligi aniqlandi. Voyaga etgan 106 boshdan 51 tasi urg‘ochi bo‘lib, bu jami qumsichqonning 32,9% ni tashkil qildi. Ushbu urg‘ochi qumsichqonlarning bo‘g‘ozlari 22 ta (43,1%), tug‘ganlari 20 ta (39,2%) va 9 ta (17,7%)si qisir ekanligi;

2021 yilda jami tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni 412 bosh bo‘lib, shundan 144 bosh yosh va 268 bosh qumsichqonlar voyaga etgan ekanligi aniqlandi. Voyaga etgan 268 boshdan 127 tasi urg‘ochi bo‘lib, bu jami qumsichqonning 30,8% ni tashkil qildi. Ushbu urg‘ochi qumsichqonlarning bo‘g‘ozlari 46 ta (36,2%), tug‘ganlari 52 ta (41%) va 29 ta (22,8%)si qisir ekanligi;

2022 yilda jami tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni 218 bosh bo‘lib, shundan 79 bosh yosh va 139 bosh qumsichqonlar voyaga etgan ekanligi aniqlandi. Voyaga etgan 139 boshdan 72 tasi urg‘ochi bo‘lib, bu jami qumsichqonning 33% ni tashkil qildi. Ushbu urg‘ochi qumsichqonlarning bo‘g‘ozlari 29 ta (40,3%), tug‘ganlari 25 ta (34,7%) va 18 ta (25%)si qisir ekanligi aniqlandi (2-jadval).

Ilmiy manbalarda katta qumsichqon 1-14 tagacha embrion tug‘ishi mumkinligi xaqida ta’kidlangan bo‘lsa, bizlarning tadqiqotlarimiz davomida nafaqat bu sondagi, balki 10 tadan ortiq embrion uchramadi.

Keyingi yillarda Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqonning ko‘payish dinamikasi bo‘yicha 2-4 ta embrioni bor bo‘g‘oz urg‘ochilari 28,5%ni, 5-7 ta embrioni bor bo‘g‘oz urg‘ochilari 63,5%ni hamda 8-10 ta embrioni bor bo‘g‘oz urg‘ochilari atiga 8%ni tashkil qildi (4-rasm).




4-rasm. Shimoli-G‘arbiy Qizilqumda katta qumsichqonning ko‘payish dinamikasi (2018-2022 yillar % hisobida)

2-jadval

**Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumning tadqiqot olib borilgan 3 ta landshaftli ekologik tumanlarida katta qumsichqonning
koʻpayish dinamikasi (2018-2022 yy.)**

Yillar	Tadqiq qilingan katta qumsichqonlar soni	Shundan yosh va voyaga etganlar soni				Urgʻochilarning koʻpayishdagi ishtiroki			Embrion qatori (soni)										Jami embrionlar soni
		Yosh sichqonlar		Voyaga etgan sichqonlar		Boʻgʻoz	Tuqqan	Qisir	2	3	4	5	6	7	8	9	10	10 dan koʻp	
		♂	♀	♂	♀														
2018	293	54	47	89	103	41	36	26	-	4	5	9	6	12	3	2	-	-	239
		34,5%		30,4%	35,1%	39,8%	35%	25,2%	22%			65,8%			12,2%				
2019	274	49	56	82	87	34	33	20	-	3	9	7	5	7	2	-	1	-	185
		38,3%		30%	31,7%	39%	38%	23%	35,3%			55,9%			8,8%				
2020	155	22	27	55	51	22	20	9	1	2	4	4	5	5	1	-	-	-	117
		31,6%		35,5%	32,9%	43,1%	39,2%	17,7%	31,8%			63,6%			4,5%				
2021	412	63	81	141	127	46	52	29	1	3	8	7	10	12	4	1	-	-	263
		35%		34,2%	30,8%	36,2%	41%	22,8%	26,1%			63%			10,9%				
2022	218	35	44	67	72	29	25	18	-	4	4	6	7	7	1	-	-	-	157
		36,2%		30,7%	33%	40,3%	34,7%	25%	27,6%			69%			3,4%				
Jami	1352	223	255	434	440	172	166	102	2	16	30	33	33	43	11	3	1	-	961
		35,1%		32,1%	32,8%	39,7 %	37,5%	22,8%	28,5%			63,5%			8%				

Tadqiq qilingan katta qumsichqonlarni embrionlar soni bo'yicha tahlil qilganimizda, eng ko'p embrionli bo'g'oz qumsichqonlar bu 7 ta embrionli ekanligi aniqlandi (5-rasm).



5-rasm. Katta qumsichqon embrionlar soni (2018-2022 yy.)


Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra 2018 yilda eng ko'p aniqlangan embrionli qumsichqonlar 7 ta embrionli; 2019 yilda 4 ta embrionli; 2020 yilda 5-6 ta embrionli; 2021 yilda 7 ta embrionli va 2022 yilda esa 6-7 ta embrionli katta qumsichqonlar kuzatildi.

Dissertatsiyaning **“Katta qumsichqonning reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi ta'siri va uning ahamiyati”** deb nomlangan to'rtinchi bobi beshta paragrafdan iborat bo'lib, katta qumsichqon populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi ta'sirini o'rganish va o'lat o'chog'idagi katta qumsichqon populyatsiyalarining etologik xususiyatlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan.

Birinchi paragraf qumsichqonlarning ko'payish muddatlari bo'yicha landshaftlararo taqsimlanishi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan: Tadqiqotlar davomida ilmiy tadqiqot uchun tanlangan uchta landshaftli-ekologik tumanlarda (Orololdi qumi, Nukus qumi va G'arbiy Qizilqum) katta qumsichqon ko'payishining boshlanish vaqti, eng yuqori darajada ko'payishga qatnashish vaqti hamda tamomlanish vaqtlaridagi tafovutlar aniqlandi (6-rasm).

Tadqiqot natijalarga ko'ra, Shimoli-G'arbiy Qizilqumning G'arbiy Qizilqum hududida katta qumsichqonning ko'payish mavsumlari bo'yicha quyidagilar aniqlandi:

2018 yilda mart oyining I-dekadasida boshlanib, iyul oyining I-dekadasigacha davom etgan, ko'payishga qatnashishning eng yuqori darajasi mart oyining II-dekadasida kuzatildi;



6-rasm. G‘arbiy Qizilqum hududida katta qumsichqon ko‘payishining davomiyligi (2018-2022 yy.)

2019 yilda mart oyining I-dekadasida boshlanib, iyul oyining II-dekadasigacha davom etgan, ko‘payishga qatnashishning eng yuqori darajasi mart oyining II-dekadasida kuzatildi;

2020 yilda mart oyining I-dekadasida boshlanib, iyul oyining I-dekadasigacha davom etgan, ko‘payishga qatnashishning eng yuqori darajasi mart oyining III-dekadasida kuzatildi;

2021 yilda mart oyining II-dekadasida boshlanib, iyul oyining I-dekadasigacha davom etgan, ko‘payishga qatnashishning eng yuqori darajasi mart oyining III-dekadasida kuzatildi;

2022 yilda mart oyining II-dekadasida boshlanib, iyun oyining III-dekadasigacha davom etgan, ko‘payishga qatnashishning eng yuqori darajasi mart oyining III-dekadasida kuzatildi.

Olib borilgan ekologik tadqiqot natijalariga ko‘ra, tadqiq qilingan uchta LET hududida ularning joylashgan o‘rni, tabiiy iqlim sharoiti hamda yillik yog‘in-sochin miqdoriga bog‘liq holda bir-biridan ajratib turadigan farqlar va ayrim yillardagi o‘xshashliklar aniqlandi.

Mazkur bobning uchinchi paragrafi katta qumsichqon populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi ta‘sirini o‘rganishga doir bo‘lib, katta qumsichqonning ko‘payishidagi nasldorligini o‘rganishda Shimoli-G‘arbiy Qizilqum populyatsiyasining son dinamikasidagi ma‘lumotlar aniq bo‘lishi uchun (solishtirmali) 4 ta davr yuqori son dinamika siklini tanladik:

Birinchi davr 1965-1967 yillar, Orol dengizining to‘lib turgan, tabiat balansining muvozanati, tevarak atrof yashash muhitining, ekologik fojeaga hali uncha uchramagan davr sifatida tanlandi;

Ikkinchi davr 1989-1991 yillar Orol dengizi suv sathining pasayib boshlashidan 25-30 yildan keyin. Orol fojeasiga qarshi kurashish chora-tadbirlarini ko'rish muammosi davri. Tabiatda sezilarli katta o'zgarishlar hali kuchli bo'lmagan yillar;

Uchinchi davr 2008-2009 yillar Orol dengizining qurib qolishining kuchaygan davri, atrof muhit tabiatida ulkan o'zgarishlarning ko'rinish yillari. Fojeaning kuchayishi, dengizning to'liq quruqlikka aylanish davri. Amudaryo suvi tortilib, ko'llarning quruqlikka aylanish, Landshaftlarning trasformatsiyalanishi, flora va faunaning areali qisqarib, qurg'oqchilikning ta'siri kuchaygan, sutemizuvchi hayvonotlar dunyosida migratsiya faolligining massalik harakterga aylanish yillari, tabiatning kambag'allashish davri hisoblanadi.

To'rtinchi, qo'shimcha davr 2018-2022 yillarda dengiz bilan to'liq hayrlashgan, fojeani yumshatish, bundan ham yomon oqibatining oldini olish davri deb tanladik va ushbu davrlardagi materiallar hamda olib borilgan tadqiqot yillardagi ma'lumotlar tahlil qilindi.


Shimoli-G'arbiy Qizilqum sharoitida katta qumsichqonning nasldorligini o'rganish ishonchli ko'p (boy) materiallarga asoslangan (3-jadval, 7-rasm).

3-jadval

Shimoli-G'arbiy Qizilqumda Orol ekologik inqirozining turli davrlarida katta qumsichqonning ko'payish nasldorlik potentsiali

Yillar	Jami tadqiq qilinganlar soni	Yosh-lari	Voya ga etgan ♂♂	Voyaga etgan ♀♀		Oʻrtacha embrion soni	Embrionlar soni boʻyicha nasldorligi							
		abs.	abs.	abs.	boʻ-gʻoz		Jami	1-4 emb.		5-7 emb.		8 va undan koʻp emb.		
		%	%	%	%			abs.	%	abs.	%	abs.	%	
1965 1967	83649	31185	30143	22321	4836	5,7	27566	535	11,1	2740	56,7	1561	32,2	
		37,3	36,0	26,7	21,7									
1989 1991	22485	11614	1085	9786	3080	4,9	15092	808	26,2	1780	57,8	492	16,0	
		51,7	4,8	43,5	31,5									
2008 2009	14424	4232	5160	5032	1402	3,5	4907	87	6,2	1289	91,9	26	1,9	
		29,3	35,8	34,9	27,9									
2018 2022	1352	478	434	440	172	5,6	961	48	27,9	109	63,4	15	8,7	
		35,1	32,1	32,8	39,1									

Qiyosiy tahlil uchun tanlangan yillar 3-jadvalda keltirilib: 1965-1967 yillarda 83649 ta; 1989-1991 yillarda 22485 ta; 2008-2009 yillarda 14424 ta; ya'ni jami-120558 bosh (ekz) bo'lib, shundan, 37139 bosh voyaga etgan urg'ochi katta qumsichqonning ko'payishi, nasldorlik potentsiali tahlil qilindi.



7-rasm. Shimoli-G'arbiy Qizilqumda Orol ekologik inqirozi ta'sirida katta qumsichqon populyatsiyasining davriy nasldorlik son dinamikasi (1 qumsichqonga keladigan embrionlar soni bo'yicha: 1-4 kam; 5-7 o'rtacha; 8 va undan ko'p yuqori).

Keltirilgan tahlil natijalariga ko'ra, kam nasdorli (1-4 embrionli) bo'g'ozlar soni 1965-1967 yillarda-11,1 %; 1989-1991 yillari-26,2 %, 2008-2009 yillari esa-6,2 %ni tashkil qilgan bo'lsa, o'rtacha nasldorli (5-7 embrionli) bo'g'ozlar soni 1965-1967 yillari-56,7 %; 1989-1991 yillari-57,8 %, 2008-2009 yillari esa-91,9 %; yuqori nasldorlik (8 va undan ham ko'p embrionlar) ga ega bo'g'ozlar soni: 1965-1967 yillari-32,2 %; 1989-1991 yillari-16,0 %; 2008-2009 yillari esa-1,9 %, ya'ni 1965-1967 yillarga solishtirganda, 1989-1991 yillari-15 hissaga, 2008-2009 yillari esa-25 hissaga kamayib ketganligini, xulosa qilib aytganda katta qumsichqon populyatsiyasida taxminan 50 yil ichida nasldorlikda ulkan pasayuvchanlik yuz berayotganligi kuzatildi.

Olib borilgan bioekologik tadqiqot natijalariga ko'ra, 2018-2022 yillarda: kam nasldorlikning (1-4 embrionli bo'g'ozlar) soni-27,9 %; o'rtachasi (5-7 embrionlisi) soni-63,4 %; yuqori nasldorlilar (8 va undan ham ko'p yuqorisi) sonining-8,7 % ekanligi aniqlandi.

XULOSALAR

«Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumda katta qumsichqoni populyatsiyasining reproduktiv jarayoniga Orol inqirozi taʼsirini oʻrganish» mavzusidagi biologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Katta qumsichqon (*Rhombomys opimus* Lichtenstein, 1823)ning Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumda keng tarqalganligi, qattiq soz tuproqli taqirlik tekislik biotoplarda mustahkam, uzoq saqlanadigan koloniyalarining taqsimlanishi, koloniyalar strukturasi aniqlangan.

2. Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumning Nukus qumi hududida katta qumsichqon populyatsiyalarining koʻpayishidagi oʻzgarishlariga koʻra qishlab chiqqan urgʻochi sichqonlar orasida boʻgʻozlar soni mart oyining uchinchi dekasida 60-80% ni, aprel, may, iyun oylarida esa 10-50% ni tashkil qildi.

3. Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumda katta qumsichqonning koʻpayish dinamikasini tadqiq qilishdagi jami individlar soni 1352 bosh boʻlib, shundan 478 bosh yosh va 874 bosh voyaga etgan populyatsiyalarni tashkil etganligi aniqlandi. Voyaga etgan 874 boshdan 440 tasi urgʻochi boʻlib, bu jami qumsichqonning 32,8% ni tashkil qildi. Ushbu urgʻochi qumsichqonlarning boʻgʻozlari 172 ta (39,7%), tugʻganlari 166 ta (37,5%) va 102 tasi (22,8%) qisir ekanligi aniqlandi.

4. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga koʻra 10 dan ortiq embrionli qumsichqon uchramadi. Shimoli-Gʻarbiy Qizilqumda katta qumsichqonning koʻpayish dinamikasi boʻyicha 2-4 ta embrioni bor boʻgʻoz urgʻochilari 28,5 % ni, 5-7 ta embrioni bor boʻgʻoz urgʻochilari 63,5 % ni hamda 8-10 ta embrioni bor boʻgʻoz urgʻochilari atiga 8 % ni tashkil qildi.

5. Katta qumsichqonning nasldorligi quyidagicha izohlanadi: past nasdorli (1-4 embrionli) boʻgʻozlar soni-11,1%; oʻrtacha nasldorli (5-7 embrionli) boʻgʻozlar soni-56,7%; yuqori nasldorlik (8 va undan ham koʻp embrionlar) ga ega boʻgʻozlar soni-32,2%. Bizning tadqiqotlarimizga koʻra past nasldorlikning (1-4 embrionli boʻgʻozlar) soni-10,1%; oʻrtachasi (5-7 embrionlisi) soni-85,7%; yuqori nasldorlilar (8 va undan ham koʻp yuqorisi) sonining-4,2% ga pasayib ketganligi aniqlandi.

6. Katta qumsichqonning asosiy ozuqa manbai hisoblangan saksovul maydonlarining kengayishiga mos ravishda bu turning areali ham kengayayotganligi kuzatildi. Ilgari uchramaydigan Orol dengizining qurigan sahni hamda Quyi Amudaryo davlat biosfera rezervati hududida yaxshi mustahkamlanmagan, shagʻal-toshloqli maydonlarda ham qumsichqonining koloniyalari aniqlandi.

7. Shimoli-Gʻarbiy Qizilqum va unga yondosh hududlarda tarqalgan katta qumsichqon populyatsiyalarining son va sifat belgilari boʻyicha monitoring ishlarini hozirgi Orol ekologik inqirozi taʼsirida doimiy ravishda amalga oshirishni talab etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.В.20.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРАКАЛПАКСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

МАТРАСУЛОВ ГАЙРАТ ЖАМАЛАДДИНОВИЧ

**ИЗУЧЕНИЕ ВЛИЯНИЯ АРАЛЬСКОГО КРИЗИСА НА
РЕПРОДУКТИВНЫЙ ПРОЦЕСС ПОПУЛЯЦИИ БОЛЬШОЙ
ПЕСЧАНКИ В СЕВЕРО-ЗАПАДНОМ КЫЗЫЛКУМЕ**

03.00.06 - Зоология

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Нукус - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/B735.

Диссертация выполнена в каракалпакский государственный университет.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.karsu.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyounet». (<http://www.ziyounet.uz>).

Научный руководитель:

Жуманов Муратбай Ареспублиевич
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Холбоев Фахриддин Рахмонкулович
доктор биологических наук, профессор

Ганджаева Лола Атаназаровна
доктор биологических наук, старший научный сотрудник

Ведущая организация:

Ташкентский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится «29» апреля 2023 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.B.20.04 при Каракалпакском государственном университете. (Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Зал заседаний Каракалпакского государственного университета. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78, E-mail: karsu_info@edu.uz).

С диссертации можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каракалпакского государственного университета (зарегистрировано за №129). Адрес: 230112, г. Нукус, ул. Ч.Абдирова, дом 1. Тел.: (+99861) 223-60-78, факс (+99861) 223-60-78.

Автореферат диссертации разослан «14» апреля 2023 года.
(реестр протокола рассылки №2 от «14» апреля 2023 года)



Г.Асенов
Заместитель председателя
Научного совета по
присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

М.К.Бегжанов
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению
ученых степеней, д.ф.б.н.,
доцент

Я.И.Аметов
Председатель Научного
семинара при Научном совете
по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. На сегодняшний день в мире глобальное изменение климата, резкое увеличение неестественных ландшафтов, систематическое увеличение загрязнения природной среды промышленными отходами негативно сказываются на объектах животного мира, являющихся живыми компонентами биогеоценоза, и приводят к адаптации их представителей к различным экологическим средам обитания. Особенно, на антропогенно освоенных и урбанизированных территориях они становятся причиной сокращения плотности популяций позвоночных животных, в частности грызунов. Поэтому, обоснование экологии млекопитающих грызунов на территориях с природными экосистемами и высокой антропогенной нагрузкой, определение их воспроизводительности, оценка состояния их популяций и эпизоотолого-эпидемиологического значения имеет важное научно-практическое значение.

В мире уделяется огромное внимание географическому распространению, биоэкологии, плодовитости грызунов представителей териофауны, живущих в непосредственной близости от человека, их трофическим связям и роли в распространении инфекционных заболеваний, а также разработке современных мероприятий по борьбе с ними. В этой связи, выявлены количественные и качественные изменения популяций представителей грызунов, жизненная форма которых связана с почвой, в частности крупных песчанок, изучена их воспроизводительность и доказана их эпизоотолого-эпидемиологическая значимость и роль при оценке состояния экосистем, подверженных экологическому кризису. Следует отметить, что популяция большой песчанки, являющейся численно доминирующим видом грызунов в засушливых районах, колеблется не только под влиянием факторов окружающей среды, но и по интенсивности их размножения, а также в качестве важного источника пищи для хищников. В частности, широкомасштабное искусственное освоение почв аридных территорий становится причиной изменения численности крупных песчанок. Поэтому, определение особенностей межландшафтного колониального расположения и размножения большой песчанки, обоснование ее экологии и внедрение в практику его эпизоотолого-эпидемиологического значения имеет актуальное научно-практическое значение.

В настоящее время в нашей республике уделяется большое внимание инвентаризации фауны локальных территорий, сохранению биоразнообразия животного мира и рациональному использованию биоресурсов. В связи с этим выявлено территориальное распространение большой песчанки у млекопитающих, оценены факторы, влияющие на ее размножение, разработаны предложения по проведению профилактических мероприятий против них. В

Стратегии развития Нового Узбекистана¹ в цели 79 определены задачи по “Предотвращению имеющихся экологических проблем, наносящих вред здоровью и генофонду населения”. Для осуществления поставленных задач, в частности, изучение влияния нынешнего Аральского экологического кризиса на репродуктивный процесс популяции большой песчанки, распространенной в Северо-Западном Кызылкуме нашей республики, оценка их роли при распространении трансмиссивных заболеваний и разработка методов борьбы с ними имеет важное научно-практическое значение.

